

ULUG'BEK HAMDAM "OTA" ASARI

Farg'ona davlat universiteti 23.90A-guruh talabasi

Nabiyeva Qumrinoza

Annonatsiya: Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani zamonaviy o'zbek adabiyotidagi eng ta'sirli asarlardan biri bo'lib, insonning ichki kechinmalari, ota-onaga bo'lgan hurmat, mehr va mas'uliyat mavzularini chuqur yoritadi. Asarda bosh qahramonning o'z otasi bilan bo'lgan murakkab munosabatlari, hayot sinovlari davomida shakllangan fikr va tuyg'ulari tasvirlanadi. Roman oila, halollik va insoniylik kabi qadriyatlarni kashf etishga undaydi.

Kalit so'zlar: ota, qiz, mehr, oila, ona

Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida badiiy asar tili ancha o'ziga xos bo'lib, asosan chuqur falsafiy ma'nolar psixologik tasvirlar hayotiy hikmatlarga boyligi bilan ajralib turadi. Asar tili adabiy, lekin oddiy o'quvchiga tushunarli qilib ishlangan bo'lib, bu yozuvchining mahoratini ko'rsatadi. Asarning tilini kim o'qishdan qat'iy nazar, oddiy xalq ommasi ham tushunadi. Buni biz asarni o'qishni boshlaganimizda bilamiz: "Oychechak opa" azim Toshkentda bir duogo'y domullo chiqibdi, o'ziyam domullomisan domullo ekan, nafasi naq yeti iqlimni olarmish! degan gapni ko'chadan topib kelgandan buyon O'tkir aka xonadonida Egamning bergan kuni o'sha domullodan gap ochiladi". Bilamizki, "Folbinga ishonma, folsiz ham qolma" degan maqolni xalqimiz bejizga chiqarmagan. Nega desangiz o'zbek ayollarining deyarli yarmi bir oilalarning boshiga bir kulfat tushsa folbinga yuguradilar, chunki "chiqmagan jondan umid" deb fol ochtiradilar. Kim uchundir haqiqatdir, lekin mening o'zim bunaqa narsalarga ishonmayman. Chunki hammasi Allohdan.

Asarning tili xalq tili va so'zlashuv nutqiga yaqin bo'lib, shakl jihatdan soda, lekin mazmunan chuqur. Undagi obrazlarning nutqi tabiiy va hayotiydir. Qahramonlar o'z shaxsiy xarakteriga qarab turlicha gapiradi, bu esa tilning jonliligini oshiradi.

Yana romada muallif shunaqa o'xshatishlarni qo'llaganlarki, mutolaa qilish jarayonida ko'rib yozuvchi mahoratiga qoyil qolmay iloji yo'q .Shunday o'xshatishlarga misollar keltiraman:

“Otaning muz qotgan yuragi shu yerga qadar muz edi.Endi ko'klam quyoshining tig'iga bardosh berolmay chak-chak toma boshlagan tarnovdagi sumalak –muzdek erimoqqa tushdi”

“O'zi qariyalarning uyquasi qushniki monand bir cho'qim emasmi ,otada shu ham qaygadir qochdi-ketdi”.

“Toshni teshgan tomchidek edi bu tushlar bu o'ylar”.

“Po'lat tushida o'zini qirqaga qadar borayotgan karvonga o'xshatadi”

“Ota” romanining badiiy o'ziga xosliklaridan biri bu-tasvirdir.Unda muallif jonli va hayotiy tasvirlar yaratish orqali voqealar rivojini o'quvchiga yaqin qiladi.Uning tasviriy vositalari qahramonning ruhiy olamini aks ettirishda juda muhim ro'l o'ynaydi.Misol uchun :”Oychechak opa” azim Toshkentda bir duogo'y domullo chiqibdi,o'ziyam domullomisan domullo ekan,nafasi naq yeti iqlimni olarmish ! degan gapni ko'chadan topib kelgandan buyon O'tkir aka xonadonida Egamning bergan kuni o'sha domullodan gap ochiladi”.

Muallif romanda juda ko'plab qahramonlarni tasvirlaydi va ularning xarakterlarini mukammal ochib beradi. Har bir qahramon o'zining shaxsiy fazilatlari bilan ajralib turadi.Masalan,”Menimi? Meni...hayajonlanganidan tanglayiga yopishib qoldimi,Oychechak opaning tili kalimaga sira kelmas,”Menimi,meni,meni...”deya qovoq aridek bitta so'zni g'uldiragandan g'uldirardi.”

Bu romanni realistik roman deyishimiz mumkin .Chunki voqealar rivoji haqiqiy real hayotdan olingan. Buni quyidagi misolda ham ko'rishimiz mumkin: “Ha,bu dunyoda musht hal qila olmaydigan mushkulotlar” ,aql bilan yechib bo'lmaydigan tugunlar bor ekan”.

Mehribon ota va fidoyi farzand o'rtasidagi samimiy va achchiq hikoya roman syujetining ham mazmunining ham asosini tashkil etadi. Sevinchning otasidan yashirincha qilingan nikohi fojiasining omillaridan biri edi. Yozuvchi Sevinch orqali qizlarga „Po'lat“ orqali otalarga hayotiy ibrat ko'rsatishni maqsad qilgan. Har ikki tomonning o'ylamay qilingan xatti-harakatlari natijasida yuz bergan oila halokati yozuvchi tomonidan jamiyatga saboq bo'lishi uchun yozilgandek taassurot qoldiradi.

Xulosa. „Ota“ romanining asosiy g'oyasi oilaning jamiyatdagi o'rnini qanchalik muhim o'rinda turishni ko'rsatishdir. Yozuvchi oila orqali jamiyatning barqarorligini, avlodlar o'rtasidagi uzviylikni yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ulug'bek Hamdam „Ota“ romani. Toshkent matbuoti, 2022- 208 b.
2. A. Ulug'ov „Adabiyotshunoslik nazariyasi“. G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.